

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 07 | pp. 38-45 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KREDIT SIYOSATINING O'RNI VA AHAMIYATI



Adilov Mirkomil Miralimovich,

Mustaqil tadqiqotchi,

O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Tijorat banklarning moliyaviy holati ularning kredit portfeli holatiga uzviy bog'liqdir. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi ham kredit portfelining shakllanishi va tuzulishi bilan chambarchas bog'liq. Kreditlarning to'g'ri taqsimlanishi va ular sifatini oshirishda kredit siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari kredit siyosatining asosiy maqsadi bank faoliyatining kredit yo'nalishini belgilash va ustuvorligini aniqlash hisoblanadi. Maqolada tijorat banklari kredit portfeli samaradorligini oshirishda kredit siyosatining o'rni va ahamiyatining tahlili o'rganilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit, kredit portfeli, kredit siyosati, takomillashtirish, diversifikatsiya, rentabellik, O'zbekiston.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КРЕДИТНОЙ ПОЛИТИКИ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Адиллов Миркомил Миралимович

Независимый исследователь, заместитель директора Высшая школа бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Аннотация: Финансовое состояние коммерческих банков неразрывно связано с состоянием их кредитного портфеля. Эффективность коммерческих банков тесно связана с формированием и структурой кредитного портфеля. Кредитная политика играет важную роль в правильном распределении кредитов и повышении их качества. Основной целью кредитной политики коммерческих банков является определение кредитного направления и приоритетности деятельности банка. В статье анализируется роль и значение кредитной политики в повышении эффективности кредитного портфеля коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредит, кредитный портфель, кредитная политика, совершенствование, диверсификация, рентабельность, Узбекистан.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREDIT POLICY IN IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE CREDIT PORTFOLIO OF COMMERCIAL BANKS

Adilov Mirkomil Miralimovich,

Independent researcher, Deputy Director of Graduate School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

Abstract: The financial condition of commercial banks is inextricably linked to the condition of their loan portfolio. The efficiency of commercial banks is closely related to the formation and structure of credit portfolio. Credit policy plays an important role in the correct distribution of loans and their quality improvement. The main goal of the credit policy of commercial banks is to determine the credit direction and priority of the bank's activity. The article analyzes the role and importance of credit policy in improving the efficiency of the credit portfolio of commercial banks.

Key words: commercial banks, credit, credit portfolio, credit policy, improvement, diversification, profitability, Uzbekistan.

Kirish

Kreditlarning o'z vaqtida to'liq qaytmasligi tijorat banklarini bankrotlikka olib kelishi mumkin. AQSh, Yevropa, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bank tizimi inqirozlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bank tizimi inqirozlari muammosining sabablari yuqori riskli kredit siyosati yuritish oqibatida kredit riskining sodir bo'lishi, natijada muammoli kreditlardan kelib chiqqani bilan izohlanadi. Kredit siyosatini ishlab chiqishda tijorat banklari birinchi navbatda kelgusi yil uchun o'z strategiyasini belgilab olishadi. Strategiyani to'g'ri va mustahkam yuritish uchun bank o'z maqsad va vazifalarini belgilab oladi.

Tijorat banklarning moliyaviy holati ularning kredit portfeli holatiga uzviy bog'liqdir. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi ham kredit portfelining shakllanishi va tuzulishi bilan chambarchas bog'liq. Chunki bankning kredit portfelida muddati o'tgan kreditlar ulushi me'yorida oshsa, bankda moliyaviy muammolar vujudga keladi. Bu muammolarni bartaraf etish, kreditlarning to'g'ri taqsimlanishi va ular sifatini oshirishda kredit siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari kredit siyosatining asosiy maqsadi bank faoliyatining kredit yo'nalishini belgilash va ustuvorligini aniqlash, bankning barcha xodimlari va bo'limlarining majburiyatlarini belgilashdan iborat hisoblanadi.

Tijorat banklarining kredit operatsiyalarini tashkil etish va ular natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni kamaytirishda kredit siyosatining ta'sir doirasi juda katta. Kredit siyosati kreditlarni boshqarishning jami jarayoni asosini yaratadi, kredit ajratish va rasmiylashtirish, portfel sifatini oshirish va uni optimallashtirib borish, kredit portfelni to'g'ri shakllantirish uchun javobgar bank xodimlari qo'llaydigan obyektiv standart va parametrlarni belgilab beradi. Kredit siyosati maqsadlari huquqiy tartibga solishning muayyan elementlari, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan risk darajasi, kredit portfeli muvozanati va majburiyatlarning muddatlar bo'yicha tuzilmasini qamrab olishlari lozim [3].


Hozirgi vaqtda kredit portfelining holati va tuzulishi nafaqat bankning kredit siyosati sifatini, balki kelgusida mazkur bankning kredit faoliyati natijalarini prognoz

qilish imkonini ham beradi. Respublikamizdagi har bir tijorat banki har yili bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan kredit siyosatini uning faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, geografik, tashkiliy va boshqa omillarni inobatga olgan holda mustaqil ishlab chiqadi. Kredit siyosatining samarali tashkil etilishi va to'g'ri boshqarish tijorat banklari kredit portfeli samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Jahonda global moliyaviy beqarorlikning kuchayotgan bir sharoitida O'zbekiston Respublikasi bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tashqi va ichki xatarlarga nisbatan bardoshlilikini ko'rsatib, banklarning iqtisodiyotni kreditlar bilan ta'minlash hamda potensial shoklar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun yetarli darajada kapital bilan ta'minlanganini ta'kidlash joiz [6]. Banklar faoliyati samaradorligini oshirishda kredit risklarini boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit riskini boshqarish har qanday bankning boshqaruv strategiyasi va taktikasining ajralmas qismidir [4].

Kredit siyosati bu bankning kredit operatsiyalari sohasidagi strategiya va taktikasidir. Siyosatning strategiya qismi muayyan bankning kredit bozorida birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlari va tamoyillarini, taktika qismi esa ushbu bankning kredit bitimlarini amalga oshirishda foydalanadigan moliyaviy va boshqa instrumentlari, bitimlarni amalga oshirish qoidalari, kredit jarayonini tashkil etish tartibini o'z ichiga oladi [5]. Iqtisodiy adabiyotlarda har bir tijorat bankining o'z kredit siyosatida bo'lishi kerak bo'lgan talablar guruhlashtirilganligini ko'rishimiz mumkin (1-rasm). Kredit siyosatining to'g'ri tuzilib, yuqoridan yuritilgan holda bankning quyi pog'onalarida yaxshi tushunilsa, u bank rahbariyatiga kreditlash sohasida to'g'ri standartlarni ta'minlash, ortiqcha riskdan qochish va biznesning rivojlanish imkoniyatlarini to'g'ri baholash imkonini beradi [1].



1-rasm. Tijorat banklari kredit siyosatining asosiy vazifalari¹

¹ Muallif tomonidan boshqa tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kredit portfelining sifatiga tijorat banklari tomonidan katta e'tibor berilishi kerak. Chunki sifatsiz kredit portfeli, kreditlarning asossiz ravishda buzilishi, ishonchsiz qarz oluvchilarga kreditlar berilishi banklarning moliyaviy muvozanatiga sabab bo'lishi mumkin. Qaytarilmaydigan ssudalarni beradigan bank haqiqiy kapital to'planishini rag'batlantirish va bankning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kredit resurslarini isrof qiladi [3].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot ishida tijorat banklari kredit portfeli samaradorligini oshirishda kredit siyosatining o'rnini va ahamiyati masalalari ko'rib chiqilib, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlarning samaradorligini oshirish va ularning kredit portfelini sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari kredit portfeli samaradorligini oshirishda kredit siyosatining o'rnini va ahamiyatiga oid mavjud adabiyotlarni va shunga o'xshash kontekstlarni har tomonlama ko'rib chiqilib, bog'liq statistik ma'lumotlar tahlilini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi asosan ikkilamchi ma'lumotlar bazasi asosida olib borilgan. Tahlil ma'lumotlarining asosiy qismi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlari va Davlat Statistika Agentligi ma'lumotlari tashkil etadi. Shu bilan birga, boshqa tadqiqotchi olimlar tomonidan tijorat banklari kreditlarini takomillashtirishga doir olib borilgan izlanishlari natijalaridan ham keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit faoliyati tijorat banking asosiy faoliyati hisoblanadi. Kredit jarayonlarini tashkil etish darajasi bankning umumiy ishi va uni boshqarish sifatining eng yaxshi ko'rsatkichidir. Banklar uchun kreditlar berish nafaqat foyda keltiruvchi operatsiya, balki asosiy daromad manbalaridan biridir. Kreditlarning bank tizimi va iqtisodiyotdagi ahamiyatini o'rganishda jahon bank tizimida alohida ahamiyatga ega bo'lgan davlatlardagi holatni ko'rib chiqsak.

1-jadval

Ayrim rivojlangan mamlakatlar tijorat banklarining xususiy sektorga ajratgan kreditlari, (YaIMga nisbatan foizda)²

Mamlakatlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
<i>AQSh</i>	52,1	52	53,9	50,4	51,6	53,1
<i>Buyuk Britaniya</i>	133,4	132,0	146,0	138,8	130,3	134,2
<i>Germaniya</i>	77,7	78,9	84,0	83,5	82,7	86,5
<i>Fransiya</i>	101,8	104,2	121,5	116,6	120,4	129,4

² International Monetary Fund, International Financial Statistics and data files, and World Bank and OECD GDP estimates, <https://data.worldbank.org/indicator/FD.AST.PRVT.GD.ZS?locations=>

<i>Italiya</i>	75,7	72,7	81,5	76,7	81,6	80,9
<i>Rossiya</i>	51,2	52,6	69,6	54,4	57,2	61,7

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlari asosida aytish mumkinki, Buyuk Britaniya va Fransiyada tijorat banklari kreditlari miqdori YaIM hajmidan ko'pni tashkil etgan, Germaniya va Italiyada tijorat banklarining kreditlari miqdori YaIM hajmiga yaqin, AQSh va Rossiya Ittifoqida esa YaIM ga nisbatan kreditlar o'rtacha 50-55% ni tashkil etadi. Fikrimizcha, birinchi to'rtta mamlakat rivojiga kreditning roli yuqori bo'lib, keyingi ikkita mamlakat yalpi ichki mahsulotini yaratishda kreditdan ko'ra boshqa moliyaviy dastaklardan ko'proq foydalanib kelinmoqda.

Tijorat banklarining kreditlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda qanday o'rin tutishini keyingi misolda ko'rib chiqamiz. Quyidagi 1.2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan shuni ta'kidlash joizki, 2015-2022-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti va tijorat banklari kreditlari hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

O'z navbatida, tijorat banklarining kreditlash imkoniyatini yanada oshirish ular kredit portfelining sifatiga bog'liq. Bu esa, banklar tomonidan kredit portfelini samarali tashkil etish va portfelning daromadlilikini oshirishni taqozo etadi. Kredit siyosatining to'g'ri tashkil etilishi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muamolarning yechilishining asosiy manbai hisoblanadi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining miqdori va darajasi³

Yillar/ Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
YaIM, (trln. so'm)	176,5	199,3	302,5	407,5	524,0	580,2	734,6	888,3
Kredit qo'yimalari (trln. so'm)	42,7	53,4	110,6	167,4	211,6	276,9	326,4	390,1
Kredit qo'yimlarining YaIMga nisbati, (foizda)	24,19	26,79	36,6	41,1	40,4	47,8	44,5	43,9


Tijorat bankining kredit portfelini shakllantirish kredit siyosatini amalga oshirishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Kredit portfelini shakllantirish bank kredit faoliyatining umumiy maqsadi shakllantirilganda, hamda kredit siyosati strategiyasi ishlab chiqilgandan so'ng boshlanadi. Kredit siyosati strategiyasini ishlab chiqqan bank kredit faoliyatining asosiy maqsadlarini belgilab, kredit portfelini shakllantirishga kirishadi.

Tijorat banklari kredit portfelining shakllanishi va uning tahlili mobaynida bank tomonidan kreditlarning holati, muddati, iqtisodiy sohalar bo'yicha taqsimlanishi,

³ O'zbekiston Respublikasi, Markaziy Banki, "Moliyaviy barqarorlik sharhi" ma'lumotlari asosida tayyorlandi, 2022-yil,

ta'minot turlari, kreditlarning sifati va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil ishlarining doimiy tarzda olib borilishi, o'z navbatida kredit portfeli sifatiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Tijorat banklari faoliyating yakuniy natijasi bajarilgan operatsiyalardan olingan foyda hisoblanadi. Foyda – tijorat bankining bosh maqsadi hisoblanadi. Bank foydasining o'sishi kredit portfelining yuqori daromadlilik va sifatiga, bu o'z navbatida optimal kredit portfelining shakllanishiga bog'liqdir. Kredit siyosatini samarali olib borish tijorat bankining risk darajasi va likvidligi darajasini nisbatan yuqori darajada ushlab turish imkonini beradi.

Quyida mamlakatimiz bank tizimi sof foydasi komponentlarining tarkibiy tuzulishi va tahlilini ko'rib chiqamiz.



2-rasm. Tijorat banklari sof foydasi komponentlari⁴

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2022-yil yakunlari bo'yicha bank tizimi sof foydasi 10 trln so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 2,6 barobarga yoki 6,1 trln so'mga o'sgan. Bunda, o'sish darajasiga sof foizli daromadlar (7,6 trln so'm) va foizsiz daromadlar (9,1 trln so'm) ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, operatsion xarajatlar (3,9 trln so'm), soliq to'lovlari (1,1 trln so'm) va ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar (5,5 trln so'm) salbiy ta'sir ko'rsatganligini ko'rishimiz mumkin.

Kredit portfelining holati portfelni tahlil qilish bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Bu holat kredit portfelini monitoring qilish bilan bir xil bo'ladi. Ya'ni, kredit berilib uni qaytarishgacha ma'lum muddatli davrning ustuvorligi, kredit portfeli sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga asos bo'ladi. Kredit portfelining tahlili kreditlarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bo'yicha muddati, ularning risk darajasi, foiz stavkalari, kreditlarning ta'minlanganligi, kreditlarni qaytarish va boshqalar bo'yicha olib boriladi. Bunday monitoring portfelning jami riskini, kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlar uchun ajratilgan zaxiralarning miqdorini, kredit

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Statistik bulletin, 2022-yil. "Kredit tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari", 5.1.7-jadval ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

portfelining bankning kredit siyosati maqsadlari va strategiyasiga muvofiqligini ta'minlashga imkon beradi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida mamlakatimiz tijorat banklari kredit portfelining daromadlilik darajasini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

3-jadval

Tijorat banklari kredit portfelining daromadlilik darajasi⁵, (%da)

№	Ko'rsatkichlar/ Yillar	2018	2019	2020	2021	2022
1.	Sof foydaning jami aktivlarga nisbati, (ROA)	2,2	2,2	2,3	1,3	2,5
2.	Sof foydaning jami kapitalga nisbati, (ROE)	15,4	16,7	10,3	7,2	13,3
3.	Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati,	3,7	3,6	3,8	3,7	4,3
4.	Kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning kredit qo'yilmalariga nisbati,	4,3	4,7	5,1	5,1	6,2
5.	Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati,	4,1	4,5	4,6	4,4	5,1
6.	Bank kredit portfelining daromadlilik darajasi,	11,5	12,2	13,4	14,5	15,8
7.	Bank kredit portfelining o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi,	x	+26,4	+30,8	+17,9	+19,5
8.	Kreditlar bo'yicha foizli daromadning o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi,	x	+32,6	+44,9	+27,8	+30,2

Yuqorida ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bank kapitalining daromadliliigi va aktivlarning rentabelligi oxirgi ikki yilda yuqori o'sish sur'atlarini ko'rsatgan, mos ravishda 184 foiz va 192 foizga oshgan. Shuningdek, sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati va kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning kredit qo'yilmalariga nisbati ko'rsatkichlari ham ijobiy o'sishni qayd qilgan. Kreditlar bo'yicha foizli daromadlarning o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi 2019-yilda 32,6 foiz bo'lsa, 2022-yilda 30,2 foizga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

O'rganilgan ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash joizki, bank kredit portfelining qadrsizlanish darajasi oshib ketishi kredit portfeli sifatining pasayishi va bankning kreditlash operatsiyalaridan ko'p zarar qo'rish, muammoli kreditlarning salmog'i oshib ketganligidan dalolat beradi. Bank kredit portfeli sifatini baholashda kredit portfelidagi kreditlarning qaytmaslik darajasi kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar orqali baholash kerak.

Xulosa

⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Kredit tashkilotlari prudensial nazorati departamenti, "Bank tizimi daromadliliigi tahlili" ma'lumotlari, 2023-yil 1-yanvar.

Kredit siyosati tijorat banklarida kredit portfelini tashkil etishning jami jarayoni asosini yaratadi, kredit ajratish va rasmiylashtirish, ularni boshqarish uchun javobgar bank xodimlari qo'llaydigan obyektiv standart va parametrlarni belgilab beradi. Kredit siyosati bu bankning kredit operatsiyalari sohasidagi strategiya va taktikasidir, kredit riskini boshqarish bo'yicha me'yoriy hujjatdir.

Kredit portfelining samaradorligini oshirishning xalqaro amaliyotda turli xil usullar asosida olib boriladi. Har bir tijorat banki o'zining faoliyat sohasi, maqsadi, bankning strategiyasi, kredit portfeli hajmi, risk darajasi, boshqaruv xodimlarining malaka darajasi, daromadlilik darajalariga qarab kredit portfelini shakllantirishi kerak.

Tijorat banki kredit portfelining sifatini baholash mezonlari kredit riski, daromadlilik va likvidlik darajalarini o'z ichiga oladi. Kredit riski kredit portfelining sifatini baholay olmaydi, chunki uning konsepsiyasi yanada kengroq va likvidlik risklari va daromadlilikni yo'qotishi bilan bog'liq. Biroq, bu mezonlarning ahamiyati bank faoliyat yuritadigan joyga va uning strategiyasiga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Kredit portfelining sifatini monitoring qilish tizimini amalga oshirish uning tarkibiy qismini maksimal darajadagi rentabellik darajasini tijorat banklarining kredit risklari va likvidligi darajasiga muvofiq ta'minlashga qodirligini tartibga solish imkonini beradi.

Adbiyotlar ro'yxati/Literatura/References

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023-2024 - yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari".
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Statistik-byulleteni" - 2018, 2019, 2020, 2021, 2022-yillar ma'lumotlari.
3. Rasulov T.S. va Ziyodilloev X.R., "Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish yo'nalishlari", Monografiya, Toshkent-2024.
4. Otamurodov H.H. "Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish", PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Toshkent-2019.
5. Mohammad J. M., "Optimal Bank Loan Portfolio in Iranian's Banks", Research Journal of Finance and Accounting, ISSN 2222-1697, Vol.4, No.2, 2013.
6. Ziyodilloev X.R., "Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish", PhD. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Toshkent - 2024.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

